

DAVLAT DAROMADLARI VA XARAJATLARI: BUDJET SIYOSATI ORQALI IQTISODIY BARQARORLIK VA IJTIMOIIY ADOLATNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Nomozov Xusan Axmat o'g'li

Termiz davlat universiteti "Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi" kafedrasi o'qituvchisi

Jumayeva Sora Eshbo'ri qizi

Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola davlat byudjetining daromad va xarajat mexanizmlari orqali iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash masalalarini nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Richard Musgravening uch funksiyasi asosida O'zbekiston Respublikasining 2019-2025 yillardagi byudjet siyosati ko'rib chiqiladi. Jahon banki va milliy statistika ma'lumotlariga asoslanib, daromadlar tarkibi, xarajatlarni samaradorligi, byudjet defitsiti va davlat qarzi dinamikasi tahlil qilinadi. O'zbekiston tajribasi Singapur va Norvegiya kabi mamlakatlar tajribasi bilan solishtirilib tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat byudjeti, fiskal siyosat, soliq daromadlari, byudjet xarajatlari, ijtimoiy adolat, byudjet defitsiti, O'zbekiston islohotlari, Singapur va Norvegiya tajribasi.

KIRISH. Davlat byudjeti har qanday mamlakat iqtisodiyotining markaziy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. U nafaqat davlatning moliyaviy resurslarini taqsimlash, balki iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirishning asosiy vositasidir. Fiskal siyosatning nazariy asoslari Richard A. Musgrave va Peggy B. Musgrave tomonidan ishlab chiqilgan uch funktsiya nazariyasida yaqqol ifodalangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, byudjet siyosati quyidagi uchta asosiy funktsiyani bajarishi lozim:

Birinchidan, resurslarni taqsimlash – bozor muvaffaqiyatsizliklarini tuzatish va jamoat tovarlari hamda xizmatlarini samarali ta'minlash, ikkinchidan, daromadlarni qayta taqsimlash, ya'ni ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va adolatli taqsimotni ta'minlash, shuningdek uchinchi esa iqtisodiy stabilizatsiya - inflyatsiya, ishsizlik va iqtisodiy tebranishlarni boshqarish²³. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida byudjet siyosatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. 2020-yilgi yangi Soliq kodeksining qabul qilinishi natijasida Soliq stavkalari optimallashtirildi, foyda solig'i 15% gacha pasaytirildi, soliq imtiyozlari qayta ko'rib chiqildi, soliq ma'muriyatchiligi soddalashtirildi va raqamlashtirildi. Bu soliq yukini kamaytirish va

²³ https://www.researchgate.net/publication/24056310_Public_finance_and_three_branch_model

yig'ish samaradorligini oshirishga xizmat qildi²⁴. Natijada, 2024-yilda davlat byudjeti daromadlari sezilarli o'sdi, ammo soliq-daromadlar YaIMga nisbatan pasayish tendensiyasi kuzatildi²⁵. Shu sababdan O'zbekistonning konsolidatsiyalashgan byudjeti daromadlari YaIMning 26,5% ini tashkil etdi. 2025 yilning birinchi yarmida daromadlar 23% ga o'sib, 209,1 trillion so'mga yetdi²⁶. Xarajatlari esa YaIM ning 29,7% ini, ijtimoiy xarajatlar ulushi esa -49% ni tashkil etgan bo'lib, defitsit YaIMning 3,2% gacha pasaytirildi. 2025-yilda defitsitni 3,0% atrofida saqlash rejalashtirilgan. Shu bilan birga, soliq daromadlari YaIMga nisbatan pasayish tendensiyasi, energiya subsidiyalarining yuqori ulushi, davlat korxonalari (SOE)²⁷ ga qo'llab-quvvatlash va tovar narxlariga bog'liqlik kabi muammolar saqlanmoqda²⁸. 2025-yilga kelib birinchi darajali byudjet mablag'lari taqsimlovchilarida KPI ga asoslangan rejalashtirish kengaytirildi. Dasturiy byudjetlashtirish tizimi takomillashtirildi²⁹.

Konsolidatsiyalashgan byudjet ko'rsatkichlari
(% YaIM bo'yicha)

Yil	Daromadlar	Xarajatlar	Defitsit
2023	26,7	31,6	-4,9
2024	—	—	-3,3
2025	—	—	-2,1

2025-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 502,6 trillion so'm ga yetdi, xarajatlar 541,7 trillion so'm ni tashkil etdi. Bu mustaqillik yillaridagi eng yaxshi natijalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy xarajatlar ulushi yuqori darajada saqlanmoqda. Biroq soliq imtiyozlari va davlat korxonalari (SOE) hali ham byudjetga qo'shimcha yuklama yaratmoqda³⁰. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) 2026-yilgi Article IV mamlakat maslahati hisobotida O'zbekistonning 2025-yilgi fiskal siyosatini ijobiy baholadi. Xususan, konsolidatsiyalashgan byudjet defitsitining YaIMga nisbatan 2,1% gacha pasaytirilganini olqishladi. Bu ko'rsatkich mamlakat mustaqillik yillaridagi eng yaxshi natijalardan biri sifatida e'tirof etildi. Shu bilan birga, Jamg'arma 2026-yilda qo'shimcha xarajatlarni cheklashni, 2027-yildan boshlab non-mineral primer defitsit uchun qat'iy cheklov joriy etishni, davlat korxonalarini (SOE) faolroq

²⁴ uzbea2025001-print-pdf.pdf

²⁵ <https://inlibrary.uz/index.php/siad/article/view/72337>

²⁶ <https://kun.uz/en/news/2025/08/08/consolidated-budget-deficit-narrows-to-19-of-gdp-in-first-half-of-2025>

²⁷ SOE — davlat tomonidan to'liq yoki asosiy ulushga ega bo'lgan (odatda 51% va undan yuqori) korxonalar. Ular davlat mulki hisoblanadi va davlat siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

²⁸ <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2025/143/article-A001-en.xml>

²⁹ <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangizlanuvchi/article/view/28024>

³⁰ <https://kun.uz/en/news/2026/03/25/uzbekistans-budget-deficit-narrows-to-21-of-gdp-in-2025>

xususiylashtirishni va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirib, nishonli yordamga o'tkazishni tavsiya qildi³¹.

Qo'shimcha ma'lumot sifatida shuni aytishimiz mumkinki, 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida ³² gi O'zbekiston Respublikasining 25.12.2025 yildagi O'RQ-1105-sonli Qonuni 9-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining olti oylik ijrosi yakunlari bo'yicha daromadlari prognozi bajarilmagan va joriy moliya yilining oxiriga qadar ularning kelib tushishi uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmagan hollarda quyidagi holatda qabul qilinadi:

respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 foizidan ortiq miqdordagi xarajatlar Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan;

respublika budjeti umumiy xarajatlarining 3 va undan kam foizi miqdordagi xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining taklifiga ko'ra Vazirlar Mahkamasining qarori asosida qisqartiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining xarajatlarini qisqartirish bo'yicha qarorlar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar Kengashlari tomonidan qabul qilinadi.

Budjetlar xarajatlarini qisqartirishda budjet tashkilotlarining va budjet mablag'larini oluvchilarning budjet mablag'larini o'zlashtirishi, shuningdek qabul qilingan yuridik va moliyaviy majburiyatlari hisobga olinadi. Bunda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 120-moddasiga muvofiq kamaytiriladi. O'zbekistonning fiskal siyosati va byudjet islohotlarini xalqaro tajriba bilan solishtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababdan Singapur va Norvegiya tajribasi chuqur ko'rib chiqilib, O'zbekistonning hozirgi holati bilan solishtiriladi.

Singapur mustaqillikdan keyin qisqa muddatda past soliq yuklamasi, byudjet intizomi va investitsiyalarga yo'naltirilgan siyosat orqali yuqori daromadli mamlakatga aylandi. Bunga asosiy sabab – byudjetni juda ehtiyotkorlik bilan, intizomli boshqarishi. Singapurda byudjet odatda daromaddan ortiqcha (surplus) bilan tugaydi. Masalan, 2025-yilda byudjet daromadi xarajadan 1,9 foizga ko'p bo'ldi. Davlat xarajatlari YaIMning atigi 17-20 foizini tashkil qiladi. Bu O'zbekistonga nisbatan ancha past ko'rsatkich hisoblanadi. Ular soliq stavkalarini past ushlab turadi, lekin soliq yig'ishni juda yaxshi yo'lga qo'ygan. Davlat zaxiralaridan tushgan daromadning katta qismi byudjetga yo'naltiriladi. Subsidiyalar faqat haqiqatan muhtoj odamlarga beriladi va har

³¹ <https://www.imf.org/en/news/articles/2026/04/13/mcs041326-uzbekistan>

³² O'zbekiston Respublikasining 25.12.2025 yildagi O'RQ-1105-sonli Qonuni "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"

bir soʻmning natijasi qatʼiy nazorat qilinadi. Byudjet jarayoni toʻliq shaffof va ochiq tarzda amalga oshiriladi³³. Natijada Singapurda inflyatsiya pasayib, davlat qarzi kamayadi va iqtisodiyot barqaror oʻsib boradi.

Norvegiya neftdan juda katta daromad oladi. Lekin bu pulni birdaniga sarflab yubormaydi. Ular dunyodagi eng katta suveren jamgʻarma — Oil Fund (Neft jamgʻarmasi) ni yaratgan. 2025-yilda bu jamgʻarmaning qiymati 2 trillion AQSh dollaridan oshdi³⁴. Norvegiyada neftdan tushgan pulning faqat kichik qismi byudjetga ishlatiladi. Qolgan katta qismi jamgʻarmaga qoʻyiladi va kelajak avlodlar foydalanishi uchun saqlanadi. Bu usul mamlakatni neftga qaram boʻlib qolishdan himoya qiladi. Jamgʻarma Norges Bank Investment Management tomonidan professional boshqariladi. Natijada, Neft zaxiralari tugashi bilan ham barqaror byudjet, past inflyatsiya va yuqori ijtimoiy farovonlik saqlanib qoladi. 2025 yilda jamgʻarma byudjetning 24% ini moliyalashtiradi³⁵.

Singapur va Norvegiya tajribasini Oʻzbekiston sharoitiga moslashtirgan holda quyidagi aniq va amaliy tavsiyalarni berish mumkin. Bu takliflar 2030-yilgacha strategiyani amalga oshirishga yordam beradi:

Bundan tashqari, soliq bazasini kengaytirish va imtiyozlarni qisqartirish. Hozirgi vaqtda soliq imtiyozlari juda koʻp, bu esa byudjet daromadlarini kamaytirmoqda. Singapur tajribasidan oʻrganib, imtiyozlarni qayta koʻrib chiqish va faqat haqiqatan muhim sohalarga (masalan, yuqori texnologiyalar va eksport) qoldirish kerak. Maqsad – soliq daromadlarining YaIMdagi ulushini 2-3 foiz punktga oshirish.

Suveren jamgʻarma yaratish. Norvegiya tajribasiga asoslanib, oltin, mis, tabiiy gaz va boshqa tovarlardan tushgan qoʻshimcha daromadni alohida Suveren rivojlanish jamgʻarmasi ga yoʻnaltirish tavsiya etiladi. Bu pulni infratuzilma, taʼlim va sogʻliqni saqlashga sarflash mumkin, lekin faqat daromadning bir qismini (masalan, 3–4 foizini) ishlatish kerak. Bu oltin narxi tushganda byudjetni himoya qiladi va kelajak avlodlarga boylik qoldiradi.

Davlat korxonalarini (SOE) isloh qilish. Davlat korxonalari hozir byudjetga katta yuklama yaratmoqda. Singapur va Norvegiya tajribasidan kelib chiqib quyidagi fikrlarni ilgari surishimiz mumkin:

Muhim korxonalarni xususiylashtirishni tezlashtirish;

Qolganlarini tijorat asosida boshqarish (rahabatbardoshlikni oshirish);

Korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish

Bu byudjetga qoʻshimcha yuklamani kamaytiradi va xususiy sektorni rivojlantiradi. Subsidiyalarni nishonli (maqsadli) qilish orqali es energiya (elektr va gaz) subsidiyalarini bosqichma-bosqich qisqartirib, faqat kam daromadli oilalarga berish

³³ <https://www.moomoo.com/news/post/65524961/singapore-budget-surplus-for-fy25-revised-up-sharply-to-s>

³⁴ <https://www.regjeringen.no/en/documents/meld.-st2.-22-20242025/id3119577/?ch=1>

³⁵ <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2025/249/article-A001-en.xml>

kerak. Singapur modeli kabi har bir subsidiyaning natijasini kuzatib borish va samarasizlarini bekor qilish lozim. Bu byudjet xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi.

Natijaga asoslangan byudjetlashni kengaytirish. Har bir vazirlik va tashkilotga berilgan pulni faqat aniq natijaga (KPI) qarab ajratish tizimini butun mamlakat bo'yicha joriy etish. Masalan, ta'lim va sog'liqni saqlashda pulni sarflash emas, balki o'quvchilar sifati va bemorlarning davolanish natijasiga qarab baholash. Byudjet shaffofligini oshirish. "Fuqarolar uchun byudjet" hujjatlarini yanada sodda va tushunarli qilish. Har bir fuqaro byudjetdan qancha pul qayerga ketayotganini telefon orqali yoki internetda ko'ra olishi kerak. Raqamli platformalarni rivojlantirishni davom ettirish. Barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishiga moslashtirish. Budjetda yashil iqtisodiyotga alohida yo'nalish ajratish. Xalqaro grantlarni jalb qilish va "yashil" byudjet tamoyillarini joriy etish. Fiskal qoida joriy etish. Qonun bilan byudjet defitsitini YaIMning 3 foizidan oshirmaslikni belgilash va non-mineral (oltindan tashqari) defitsit uchun alohida cheklov qo'yish.

Davlat daromadlari va xarajatlari samarali boshqarilsa, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni kuchaytirish va aholining farovonligini oshirish mumkin. Bu islohotlarni chuqurlashtirish, xalqaro tajribani faol qo'llash va byudjet siyosatini uzoq muddatli strategik maqsadlarga bo'ysundirish orqali mamlakatimizni yuqori daromadli va gullab-yashnayotgan davlatlar qatoriga olib chiqish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. <https://lex.uz/docs/-2304138>
2. 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2025 yildagi O'RQ-1105-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7949060>
3. <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9780262034623/ch017.xml>
4. https://www.researchgate.net/publication/24056310_Public_finance_and_three_branch_model
5. 1uzbea2025001-print-pdf.pdf
6. <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2025/143/article-A001-en.xml>
7. <https://inlibrary.uz/index.php/siad/article/view/72337>
8. <https://www.imf.org/media/files/publications/cr/2025/english/1uzbea2025001-print-pdf.pdf>
9. <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/view/28024>
10. <https://kun.uz/en/news/2025/08/08/consolidated-budget-deficit-narrows-to-19-of-gdp-in-first-half-of-2025>
11. <https://sg.finance.yahoo.com/news/singapore-ended-fy2025-surplus-15-010301588.html>

12. <https://www.moomoo.com/news/post/65524961/singapore-budget-surplus-for-fy25-revised-up-sharply-to-s>
13. <https://www.regjeringen.no/en/documents/meld.-st2.-22-20242025/id3119577/?ch=1>
14. <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/002/2025/249/article-A001-en.xml>
15. <https://kun.uz/en/news/2026/03/25/uzbekistans-budget-deficit-narrows-to-21-of-gdp-in-2025>
16. <https://www.imf.org/en/news/articles/2026/04/13/mcs041326-uzbekistan>